

Mirzapo'lat Toshpo'latov

# Sirli tuzoq





MIRZAPO‘LAT TOSHPO‘LATOV



# Sirli tuzoq

Hikoyalar



TOSHKENT  
«TAMADDUN»  
2018



UO‘K 821. 512. 133-3

KBK 84(50‘)7

T 71

**Toshpo‘latov, Mirzapo‘lat**

**Sirli tuzoq** [Matn]: hikoyalar to‘plami / M. Toshpo‘latov. – Toshkent: «TAMADDUN», 2018. – 48 b.

UO‘K 821. 512. 133-3

KBK 84(50‘)7

T 71

Bugungi kunda Internet kengliklarida nihoyatta katta axborot oqimi quyunday kezib yuribdiki, undan ongli ravishda, to‘g‘ri foydalanishning ahamiyati nihoyatta katta, noto‘g‘ri foydalanish esa – koni zarar. Shu nuqtay nazardan, hali internetdan axborotning yaxshi-yomonligini farqlay olmaydigan bolalarni turli xurujlardan asrash bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Mirzapo‘lat Toshpo‘latovning «Sirli tuzoq» kitobidagi hikoyalar aynan shu muammolarga bag‘ishlanganligi bilan dolzarblik kasb etadi.

Respublika Ta‘lim markazi huzurida tashkil etilgan Ona tili va adabiyot, o‘zbek tili fanlari bo‘yicha Ilmiy-metodik kengashining 2018-yil 8-fevraldagi qaroriga ko‘ra Mirzapo‘lat Toshpo‘latovning «Sirli tuzoq» nomli hikoyalar to‘plami bolalarning o‘qishi uchun zarur qo‘shimcha badiiy manba sifatida foydalanishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-5113-9-2

© M. Toshpo‘latov, 2018 y.

© «TAMADDUN» nashriyoti, 2018 y.



## KERAKLI KITOB

Xo'p ajib zamonda yashayotirmiz: to'rt tarafimiz mo'jizalarga to'la...

Biz tengi avlod odamlari bolaligida o'qigan ertaklar va o'sha ertaklardagi sirli-sehrli hodisotlarning aksariyati allaqachonlar chinga aylanib ketdi; ketdigina emas, hatto ertaklarni lol qilguvchi haqiqatlar paydo bo'ldiki, hayratdan yoqa ushlaymiz: internet, kompyuter olami, telefondagi qitmir o'yinlar... Virtual dunyo deb atalguvchi bu «mamlakat» g'aroyibotlari hammani, ayniqsa, kelajak egalari bo'lmish yosh avlodni o'rgimchak to'riday o'rab, chirmab borayotir. Soatlab kompyuterga termulib kerak-nokerak voqealar girdobiga cho'mib o'tirguvchi bolalarga qarab turib quvonishniyam, tashvishlanishniyam bilolmay qoladi gohida kishi. To'g'ri, bugun bolamni AKT, ya'nikim, axborot texnologiyalaridan ayricha holatda o'stiraman, deyish – manqurtlik. Ammo, bu xatar bolangni qulga aylantirish darajasida kuchayib borayotgan bo'lsa-chi? Bu tahdid jigarbandingni har qanday fojeadan mudhish va ayanchli oqibatlariga yetaklashi ham ayon haqiqat bo'lsa-chi? Qanday yo'l tutish kerak farzand tarbiyasi uchun kunma-kun muhimdan-muham bo'lib borayotgan bunday zamonda? Nima qilsak jondan aziz farzandlarimizga to'g'ri va foydali yo'l ko'rsatgan bo'lamiz?

Mirzapolat Toshpo'latovning ushbu kitobida jamlangan hikoyalar aynan shunday dolzarb mavzularning badiiy talqiniga bag'ishlangani bilan qimmatlidir.

Hikoyalar ixcham, hayotiy va tabiiy voqealarga asoslangan. Tili sodda, ravon, tushunarli. Qahramonlarning o'y-tashvishlari bola dunyosiga uyqash. Eng muhimi, hikoyalarning har biri mustaqil yakunga ega esa-da, ko'rinmas iplar bilan bir-biriga bog'langan, bir-birini to'ldiradi, bitta maqsadga xizmat qiladi. Kompyuter o'yinlariga mahliyolik oqibatida darslarni esdan chiqargan, adashgan, shoshgan, xato qilgan, hatto sog'ligidan ayrilish darajasiga yetgan tengqurlarining qilmishlari o'quvchiga jiddiy ta'sir qiladi, hayotiy saboq beradi, uni o'ylashga, mulohaza-mushohadaga undaydi; to'g'ri yo'l tanlashga da'vat etadi. Bunday kitoblar bolalar uchun ham, bolalar adabiyoti uchun ham kerak, juda kerak.

**Abdusaid Ko'chimov,**  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi



## SIRLI TUZOQ

Obid ko'p qavatli uylarning uchinchi qavatida yashaydi. Atrof oynadek ko'rinib turadi. Yugurgan, qo'lidagi bozor xaltasini arang ko'tarib shoshgan erkaklar. Dunyoni suv bossa ham parvo qilmay o'ynayotgan bolalar, turfa xil daraxtlar, osmono'par binolar uning diqqatini tortmaydi. U texnikaga shunchalik qiziqadiki, telefon, kompyuterlarni osongina dasturlaydi. Faqat bitta qusuri bor. Ovqatlanayotganda ham, uxlashidan oldin ham shapaloqdek telefondan ko'zini uzolmaydi. Ba'zi bolalarga o'xshab, xiyobon, istirohat bog'i, kinolarga bormaydi. Kitob o'qimaydi. Bilgani faqat internet. Telefon bo'lsa bas, butun dunyoni unutadi. Onasi do'konga chiqarsa ham, yo'l-yo'lakay telefondan ko'zini uzmaydi. Butun dunyoni «titkilaydi», ermak axtaradi.

Shifokor ko'zoynak taqishni, telefon, kompyuterdan vaqtinchalik uzoqroq bo'lishni maslahat berdi. Otasi Muzaffar ularni berkitib tashladi. Otasidan xafa bo'lgan Obid hech kim bilan gaplashmay qo'ydi. Qovoq-tumshuq qilib ovqat yemaydi.

Onasi Navbahorning qistovi bilan naridan-beri ovqatlanadi. Muzaffarning jahli chiqadi.

– Yetar onasi, bu tantiqni boshqa erkalatma.

Obid otasining gapidan xafa bo'lib, o'rnidan turdi-da, chiqib ketdi.

Obid yangi bir qiliq chiqardi. U ovloq bir joydagi internet-kafeni topib, o'sha yerda kechgacha kompyuter o'ynaydigan bo'ldi. Ota-ona xunob. Obidning qayerdaligini bilishmaydi. Qidirishadi. Topisholmaydi.

Bir kuni internet-kafe egasi Obidning oqargan yuziga, nimjon jussasiga, so'lg'in ko'zlariga qarab, rahmi keldi. Kompyuterni o'chirib, Obidni yoniga chaqirdi.

– Uka, kasalga o'xshaysan, shifokorga bor. Iloji bo'lsa, boshqa kompyuter o'ynama. Juda ko'p o'ynab yuboryapsan. Bu yerning turgan-bitgani zarar. Nur, to'lqinlar. Men ham bu joyda noiloj-





likdan o'tiribman. Ketaqol. Men ham ketaman, senga o'xshagan adashgan bolalarni ko'rib, qiynalib ketdim.

Obidning jahli chiqib, ketib qoldi. Uyga borsa, o'qituvchisi onasi bilan gaplashib o'tirgan ekan. Onasi Obidni ko'rib:

– Qayerlarda yuribsan. Darsing tugaganiga ancha bo'libdiku? – dedi.

O'qituvchi o'rnidan turar ekan:

– Navbahor opa, meni kechiring-u, lekin Obidni shifokor ko'rigidan o'tkazing, – deb chiqib ketdi.

Onasi Obidni quchoqlab, yelkasini, boshlarini siladi.

– Xafa bo'lma, o'g'lim. Adangga aytaman, telefoningni qaytarib beradi. Faqat bir shartim bor: yaxshi o'qiysan, darslaringni qoldirmaysan.

Kech kirib, otasi ishdan qaytdi. Hamma stol atrofida yig'ildi. Ovqatlanib o'tirishardi. Navbahor odob bilan eriga choy uzatar-kan:

– Adasi, Obidjonning telefonini, kompyuterini qaytarib bering. O'ksib, kasal bo'lib qoldi.

Otasi bir xotiniga, bir o'g'liga qaradi.

– O'g'lingni kasal qilgan shu kompyuter bilan telefon emasmi? O'zimizda ham ayb bor. Qo'liga telefon emas, kitob ushlatishimiz kerak edi. Boya Xurshid kompyuterchini ko'rgandim. O'g'lingizni shifokorga ko'rsating, dedi. Yaxshisi, ertaga Obidni shifokorga olib boramiz.

Qizi Nargiza gapga aralashdi.

– Ada-ada, maktabda akamni «telefon jinnisi» deyishadi.

Obid singlisiga yovqarash qildi.

– Vey, sen jim bo'lg'in!

– Bas, qani, dars tayyorlashga, marsh, – so'ng xotiniga yuzlanib, dedi: – Onasi ertaga shifokorga olib boramiz.

\* \* \*

Shifoxonada odam gavjum. Kimdir farzandini, kimdir onasini yetaklagan.



Shifokor Obidning yurak urishini, nafas olishini yaxshilab tekshirdi. Nursiz ko'zlariga qarab, achinib boshini qimirlatdi.

– O'g'lingizda nurlanish borgan o'xshaydi. Qachondan beri ko'zoynak taqadi?

– Bir yil bo'lib qoldi. Ilgari yaxshi edi, – dedi Navbahor.

– Televizor qarshisida ko'p o'tirmaydimi?

– O'tiradi. Faqat televizor emas, kompyuterda, – dedi otasi.

– O'g'lingizda kamqonlik, toliqish, shuningdek, nurlanish bor. Maslahatim: davolanishdan so'ng, toza havoda, tabiat qo'ynida dam olsin.

Ota-ona Obidni qo'lidan ushlagancha kayfiyatsiz holda shifokorga qaradi.

– Yaxshi, Chotqolda tanishlar bor. O'sha yerda biroz dam olib kelsa, qanday bo'larkin?

– Faqat telefonsiz borsin, – dedi shifokor, – tag'in u yerdagi bolalarni ham telefon-u internetga o'rgatib baloga qolmasin. Toza havodan shifo topsa, ajab emas.

\* \* \*

Chotqol... Tog' tizmalari yaqinidagi bir qishloq. Obid otanasi bilan qarindoshlari Rustam akanikida. Atrof baland tog'lar, daraxtlar... Keng hovli o'rtasidagi kichkina ariqchadan zilol suv oqib turibdi. Hovlida har xil mevali daraxtlar, rang-barang gullar, hovlining bir chetida qo'y, sigir, tovuqlar. Avvaliga Obid bu narsalarga e'tibor bermadi. Go'yo bularning hammasi zerikarli. Hayot to'xtab qolgandek edi. Obidning ota-onasi ertasi kuni shaharga qaytadigan bo'lishdi.

– Bizga ruxsat endi. Boraylik. O'g'limizni sizlarga topshirdik.

– Ha, bexavotir ketaveringlar. Bir oyda yuziga rang kirib, o'ziga kelib qoladi.

Rustam akaning Obid tengi Sardor degan o'g'li bor ekan. Ammo u Obidga qaraganda baquvvat ko'rinadi. Yuzlari quyoshda qoraygan. Muzaffarning unga qarab havasi keldi. Ular xayrlashib, qaytib ketishdi.



Obid Sardorning yoniga bordi. Qayerda internet-kafe borligini so‘radi.

– Bizda unaqa narsalar yo‘q. Telefon ham ishlamaydi, antenna yo‘q. Faqat televizor bor. Xohlasang, ko‘rishimiz mumkin.

Obid biroz televizor ko‘rdi. Zerikdi, keyin ko‘cha aylangani chiqib ketdi. Sardor qo‘ylarga yem-xashak, tovuqlarga don berdi. Hamma o‘z ishi bilan ovora. Obid biroz qarab turdi-da, o‘zidan-o‘zi uyalib ketdi. Sardorning yoniga borib, unga yordamlashdi. Keyin ikkalasi soyga cho‘milishga borishdi. Sardor Obidning nimjon jussasiga qarab kuldi.

– Nima, tuzukroq ovqat yemaganmisan? Bizning qishloqda qizlar ham sendan baquvvat.

Obidning jahli chiqdi. Ammo lom-mim demadi. Nima ham derdi, Sardorning gapida jon bor. Bir puflasang uchib ketgudek. Qovurg‘asi ko‘rinib turgan jussasidan xijolat bo‘ldi.

Obid har kuni Sardor bilan qo‘ylarga qarar, Rustam akaga dala ishlarida yordam berardi. Mehnat qilgan sari ishtahasi ochilib, yaxshigina ovqatlanadigan bo‘ldi. Kompyuter, telefonni butkul unutdi.

Obidning ota-onasi olib ketgani kelishganida o‘g‘lini ko‘rib, hayron qolishdi. Chunki Obid tanib bo‘lmas darajada o‘zgargan, quyoshda qoraygan yuzi biroz to‘lishgan, ko‘zlari quvonchdan porlab turardi.

Ular uylariga qaytishdi. Yozgi ta‘til ham tugagan edi. Maktabda darslar boshlandi. Obidni ko‘rgan sinfdoshlari o‘rab olishdi. Unga juda o‘zgarib ketganini, to‘lishganini aytishdi. Hamma hayron.

Ayniqsa, bir partada o‘tiradigan G‘ayratning hayrati cheksiz. Nimjongina Obiddan endi asar ham qolmagan edi.

– Obid, o‘zingmisan, – dedi yelkasiga kaftini qo‘yib.

– Ha, o‘zimman, tanimayapsanmi? Tog‘da bo‘ldim. Ta‘tilni o‘sha joyda o‘tkazdim...

– Doktorlar seni kasalga chiqargandi-ku.

– Ha, kasal deyishgandi. Kasal bo‘la boshlagandim. Telefon, internet degan balolar kasal qilgan ekan. Ulardan qutuldim.

– Qanday qilib?





– Toqqa bordim, dedim-ku. Qarindoshlarimnikiga. Oldiniga telefonsiz, kompyuter o‘yinlarisiz qiynaldim, zerikdim. Tog‘lar, daryo va soylar... U yerlarga o‘rgandim. Mehnat qildim. To‘g‘risi, o‘zim ham hayronman. Mo‘jiza yuz berdi, desam ham bo‘laveradi.

Ha, Obid juda ham o‘zgargan edi. Endi uning qo‘lida telefon emas, kitob ko‘rish mumkin edi. Telefon, kompyuter o‘ynayotgan bolalarni ko‘rsa, ularga achinib: «Qaytinglar, bular yaxshilik olib kelmaydi», degisi keladi.

## OSMONDAGI BOLA

Sershovqin katta ko‘chaning chetida Suyun bir qo‘li bilan hassaga suyangancha bir qo‘li bilan mashinalarga qo‘l ko‘tarib to‘xtatardi. Ba‘zi mashinalar e‘tibor bermay o‘tib ketsa, ba‘zilari to‘xtasa ham, savdosi o‘xshamay ijirg‘anib o‘tib ketardi. Suyun-ning xunobi ortib hassasiga suyangancha u yoqdan-bu yoqqa yurdi. Oyog‘ining og‘rig‘iga chidolmay yuzi burishdi. Endi o‘tirmoqchi bo‘lganida yoniga «Matiz» mashinasi kelib to‘xtadi. Haydovchi yoshgina yigit ekan. Radiodan taralayotgan duk-duk musiqa ovozi kishi yuragiga go‘yo bolta bilan urayotganday tuyulardi. Haydovchining peshonasiga qora ko‘zoynak qo‘ndirilgan. Labidagi sigaretini qo‘liga oldi.

- Bratan, taksi kerakmasmi?
- Kerak.
- Qayoqqa?
- ToshMIga.
- Qancha berasiz?
- Uch ming.
- Olti ming bo‘ladi. Invalid ekansiz. Sizga ustupka. O‘zi o‘n minglik yo‘l.

Suyun qiynalib orqa o‘rindiqqa chiqib o‘tirdi. Mashina o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Baland qilib qo‘yilgan musiqa quloqni qomatga keltirgan bo‘lsa, sigareta tutunidan Suyun bo‘g‘ila boshladi. Ko‘ngli behuzur bo‘ldi. Nogahon baqirib yubordi.



– To‘xtat, ukajon, to‘xtat! Do‘xtirga bormasdan o‘ldirasan meni. Men ham senday olifta edim. Bosar-tusarimni bilmasdim. Mendan ham o‘tibsani. Ishqilib, mening kunim sening ham boshingga tushmasin-da!

– Uv-v, bratan, og‘zingizga qarab gapiring. Til bor deb gapiraverasizmi? Tushing mashinadan!

– O‘zim ham bu mashinada ketaman, deb o‘lib turganim yo‘q. Men senga yaxshilik qilmoqchi edim. Mening boshimga tushgan kulfat sening ham boshingga tushmasin, deyman. Men ham bir paytlar osmonda yurardim. Ollohning o‘zi yerga tushirib qo‘ydi. Qilgan ishimga yarashasini oldim.

Haydovchi sal hovuridan tushib, radioni o‘chirdi. Qiziqib nima bo‘lganligini so‘radi.

– Eshitsang, aytib beraman.

– Eshitaman, ayting, kechikmaymizmi do‘xtirga?

– Yo‘l-yo‘lakay aytib beraman. Faqat musiqani o‘chirib, sekinroq hayda.

– Bo‘pti, eshitamiz.

Mashina o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Har qalay, avvalgiday tez emas. Suyun ma‘yus tortgancha o‘z hikoyasini boshladi. Go‘yo u o‘sha kunlarni boshdan kechirayotganday edi.

– Ota-onamning erkasi edim. Maktabni bitirmasimdan «Lasetti» sovg‘a qilishdi. O‘zi shundoq ham tekkanga tegib, tegmaganga tosh otib hammani bezor qilardim. Maktabga bormagan kunim o‘quvchilar ham, o‘qituvchilar ham xursand edi. Biron o‘qituvchi yoki mahalla keksalari tanbeh bersa, otam borib gaplashib qo‘yar, gapirganiga pushaymon qildirardi. Shu-shu menga hech kim tanbeh bermaydigan bo‘ldi. Mashinaga o‘tirganimda radioning ovozini balandlatardim. Peshonamga qora ko‘zoynak qo‘ndirib, sigareta chekkancha yuqori tezlikda mahallada yurganimda «Suyunjon, baraka topgur, muzikangni sal pasaytir, keksalar bezovta bo‘lyapti. Beshikdagi bolalar cho‘chib uyg‘onyapti», deyishardi. Atayin battar baland qilardim.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/uz/asar/3712> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/3712> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную  
версию можно найти на сайте  
<https://kitobxon.com/ru/asar/3712>